

IMOM BUXORIYNING "AL-ADAB AL-MUFRAD" ASARIDA ODOB-AXLOQ MASALALARINING YORITILISHI**Abdurahmonova Sevinch Tursun qizi**

Termiz davlat universiteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19581573>

Annotsatsiya. Ushbu maqolada buyuk muhaddis Imom Buxoriyning "Al-Adab al-mufrad" asarida yoritilgan odob-axloq masalalari tahlil qilinadi. Asarda insoniy fazilatlar, jamiytdagi o'zaro munosabatlar, ota-ona hurmati, qo'ni-qo'shnichilik, mehr-oqibat, halollik va poklik kabi muhim axloqiy qadriyatlar hadislar asosida ochib berilgan. Maqolada ushbu asarning tarbiyaviy ahamiyati va bugungi kundagi dolzarbligi ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.

Kalit so'zlar: Imom Buxoriy, Al-Adab al-mufrad, hadis, odob-axloq, tarbiya, insoniy fazilatlar, jamiyat, axloqiy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы нравственности и этики, освещённые в произведении «Аль-Адаб аль-муфрад» великого учёного Имам Бухари. В книге раскрываются такие важные человеческие качества, как уважение к родителям, добрососедство, милосердие, честность и духовная чистота на основе хадисов. В статье рассматривается воспитательное значение данного труда и его актуальность в современном обществе.

Ключевые слова: Имам Бухари, Аль-Адаб аль-муфрад, хадис, нравственность, воспитание, человеческие качества, общество, моральные ценности

Annotation. This article analyzes the ethical and moral issues presented in the work "Al-Adab al-Mufrad" by the renowned scholar Imam Bukhari. The book highlights essential human values such as respect for parents, good neighborliness, kindness, honesty, and purity based on hadiths. The article examines the educational significance of this work and its relevance in modern society.

Keywords: Imam Bukhari, Al-Adab al-Mufrad, hadith, ethics, morality, education, human values, society.

Kitobda Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning odob-axloqi to'g'risida hadislar bor.

Asardan umumiy 1322 hadis joy olgan.[4] Ushbu kitob Imom al-Buxoriyning boshqa kitobi - „Al-Jome as-Sahih“ hadislar to'plamining soyasida qolgan deyiladi. Musulmon ulamolari o'rtasida al-Jome 'as-Sahih va Sahihi Muslim, Islomning Qur'ondan keyingi eng haqiqiy kitoblari ekanligi to'g'risida yakdil fikr mavjud.

Garchi al-Adab al-Mufrad o'zining muhim asari bo'lgan bo'lsa-da, Imom al-Buxoriy al-Adab al-Mufrad ichidagi hadislarining o'zi uchun qo'ygan Al-Jome as-Sahihdek juda qattiq va qat'iy haqiqiylik shartlariga javob berishini talab qilmagan. Biroq, hadis zanjirlarini al-Adab al-Mufrad ichida tushuntirgan, sharhlagan yoki izlab topgan va tasniflagan keyingi olimlarning asarlariga asoslanib, undagi rivoyatlarning aksariyati sahih yoki hech bo'lmaganda kuchsiz deb topilgan.

Muhammad ibn Ismoil Buxoriy hadis ilmidagi tengsiz xizmatlari uchun "Imomud dunyo" – "Dunyo imomi", "Hofizul kabir" – "Ulug' hofiz", "Amirul mo'minin fil hadis" – "Hadis ilmida mo'minlarning amiri" nomlariga sazovor bo'lgan zotdir. Ushbu buyuk muhaddis olimdan bizgacha boy ilmiy meros qolgan. Asarlarining aksariyati bizgacha yetib kelgan. Manbalarda u kishining 24 ta asarlari borligi qayd etilgan.

“Al-Jome as-sahih”, “Al-adab al-mufrad”, “Tarixul kabir”, “Tarixul avsat”, “Tarixus sag‘ir”, “Kitobuz zuafo”, “Kitobus sunan fil fiqh” shular jumlasidandir.

U kishining shoh asari “Al-Jome as-sahih” bo‘lib, Qur‘oni karimdan keyingi eng buyuk kitob deya e‘tirof etilgan. Shuning uchun ham ushbu kitobga muhaddislar tomonidan o‘sha vaqtdan to hozirgacha juda ko‘plab sharhlar bitilgan. Biz ushbu maqolada imom Buxoriyning yana bir muhim asari “Al-adab al-mufrad” haqida qisqacha ma‘lumot ulashmoqchimiz. Imom Buxoriyning “Jomius sahih” asarida ham “Kitobul adab” degan qism mavjud bo‘lib, muallif unda odob-axloqqa doir bir yuz yigirma sakkiz bobda uch yuzdan ortiq hadislarini zikr qiladi.

Lekin odob-axloq borasida zikr qilingan hadislarini yetarli emas deb hisoblab, “Jomeus sahih”da kelgan hadislariga ustozlaridan eshitgan boshqa hadislarini ham qo‘shib, “Al-Adab al-mufrad” nomli kitobni yozganlar. Bunga odob haqida har qancha kitob yozsa oz, degan fikrda ekanliklari sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak. Ko‘rinib turibdiki, kitob o‘z nomi bilan odob haqidadir.

“Odob” so‘zi aslida arabcha bo‘lib “ma‘duba” o‘zagidan olingan. “Ma‘duba” esa “odamlar taklif qilingan ziyofat” ma‘nosini anglatadi. “Odob” so‘zi bilan bu so‘zning bog‘liqligi shundaki, odob ham kishilar taklif qilingan ma‘naviy ziyofatdir. Bu haqida Abu Muhammad o‘zining “Voij” kitobida bunday deydi: “Odob kishilarni maqtalgan narsalarga chaqirgani uchun “odob” deb nomlangan”. Odobga ulamolara tomonidan juda ko‘p ta‘riflar berilgan. Jumladan Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf (rohmatullohi alayh) adabul mufradga yozgan sharhlari “Odoblar xazinasi” asarida odobga berilgan quyidagi ta‘riflarni keltiradi: “Maqtovga sazovor so‘z va amalni bajarish odobdir”; “Karamli axloqlarni ushlab odobdir”; “O‘zingdan kattani ulug‘lab, o‘zingdan kichikka mehr ko‘rsatish odobdir”. Shu va boshqa ta‘riflar jamlanmasi haqiqiy Islom shariati qanday ekanini ifodalaydi. Odobni hozirgi kunda g‘arbgacha tobe o‘laroq madaniyat deyish ommalashgan. Masalan, “salomlashish odobi” deyish o‘rniga “salomlashish madaniyati” deyiladi.

Imom Buxoriyning “Adabul mufrad” kitobi mana shunday muhim bir mavzuni bayon qilishni ko‘zlagan kitoblardan biridir. Kitob nomidagi “mufrad” so‘zi “fard” o‘zagidan olingan bo‘lib, “yolg‘iz” degan ma‘noni anglatadi. Bir so‘z bilan aytganda, “Al-Adab al-mufrad”ni “yolg‘izgina odob mavzusiga bag‘ishlangan kitob” deyish mumkin yoki Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining so‘zi bilan aytganda, “boshqa joyda topilmaydigan (yagona) odoblar” ham deyish mumkin. Hadis ilmi ustozlari doktor Muhammad Fuod tahqiqiga ko‘ra “Al-Adab al-mufrad” asari 644 bobga ajratilib, ularga odob-axloq va ijtimoiy masalalarga oid 1322 hadislar kiritilgan. Asarning yozilish uslubi muallifning shoh asari “Jomeus sahih”ga o‘xshab ketadi. Shuning uchun ba‘zi o‘rinlarda Qur‘oni karim oyatlari va sahobalarning so‘zlaridan ham iqtibos keltiradilar.

Yana shuni aytish kerakki, “Al-Adab al-mufrad” kitobidagi hadislar “Sahih Buxoriy” kitobidagi hadislar darajasida emas. Alloma Yusuf Bannuriy ushbu kitobdagi hadislarining yarmi “Sahih Buxoriy” kitobidagi hadislar darajasi bilan teng, degan bo‘lsa, qolgan yarmini “Sahih Muslim” dan keyin to‘rt “Sunan” kitoblari (Sunani Termiziy, Abu Dovud, Nasoiy va Ibn Moja)dan yuqori turishini ta‘kidlagan.

“Al-Adab al-mufrad” kitobining e‘tiborli jihatlaridan yana biri imom Buxoriy “Sahih Buxoriy” kitobidagi ba‘zi muallaq hadislarining to‘liq sanadini ushbu kitobda zikr qilib ketgan.

Ya‘ni, ushbu kitob “Sahih Buxoriy”ni to‘ldiruvchisi deyish mumkin. Bu bilan imom Buxoriyning sanad ilmida tengsiz ekanining guvohi bo‘ladi kishi bo‘lsangiz, demak, siz haqiqiy mo‘mindirsiz”. Hadislarda ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj bo‘lgan kishilarga alohida e‘tibor berilgan: “Qalbing muloyim, hojating ravo bo‘lishini xohlaysanmi?”

Xohlasang, yetimlarga mehribon bo‘l, ularning boshini sila, o‘z taomingni ularga Yedir.

Shunda diling yumshab, hojating ravo bo‘lur”. Ammo yetimlar haqqini yeyishdan tiyilmoq shart, hatto u harom qilinadi: “Ikki zaif toifa, ya’ni yetim va ayol haqqini yemoqlikni sizlarga harom qilaman”. Odamiylik ham hadislarda tez-tez tilga olingan mavzulardan. Bunday asosiy e’tibor barcha insonlarni teng tutib, hurmat qilishga, barchaga mehr-muhabbat bilan qarashga tortiladi. Jumladan, “O‘zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko‘r!”, – deyilgan.

Shuningdek, hadislarda qo‘li ochiqlik, saxovat, xayr-ehson, boshqalar dardiga sherik bo‘lishlik ulug‘langan. Hadislardagi: “Sadaqaning afzali mo‘min kishi ilm o‘rganib, so‘ng boshqa mo‘minlarga o‘rgatishidir”, “Ilm ibodatdan afzaldir” kabi fikrlar tahlilga muhtoj emas. Qur‘oni Karimda “Ilm” so‘zi asosida “Alima” –bilmoq fe‘l negiziga tayangan kalimalar 750 marotaba uchrashi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga ilk nozil bo‘lgan oyat ham “Iqro...” “O‘qi” so‘zidan boshlanadi.

Ko‘rinadiki, islom e’tiqodi avval boshdanoq insonni o‘qib-o‘rganishga, ilm vositasi bilan dunyoni anglab yetishiga targ‘ib etadi. Xulosa qilibshuni aytishimiz mumkinki, imom Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) asari odob-axloq xususidagi eng sahih hadislarni o‘zida mujassam etgan, katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to‘plamdir. Undan samarali foydalanish bugungi kundagi dolzab masalalardan biridir. Chunki Imom Buxoriyning odob-axloqxususidagi eng sahih hadislardan foydalanish orqali yoshlarda ilmga bo‘lgan qiziqishni orttirish mumkin, shuningdek, yaxshilik va yomonlik, saxiylik, halollik, adolat bilan ish ko‘rish, o‘ziga nisbatan tanqidiy ko‘z bilan qarash, vatanparvarlik siatlarini tarbiyalash mumkin.

Hadisi shariflarni yig‘ib kitob shakliga keltirish, asosan, Payg‘ambarimiz alayhissalomning vafotlaridan keyin amalga oshirilgan. Bu sharaflig‘i hijratning uchinchi asriga kelib keng quloch yozdi va u hadisshunoslikning oltin davri deb ataladi. Islom olamining o‘sha davrdagi madaniy markazlaridan sanalgan Bog‘dod, Kufa, Basra, Damashq, Buxoro, Samarqand, Urganch, Termiz kabi shaharlarda hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi muhaddislar ko‘p bo‘lgan. Ular ichida eng ishonchli manba Imom Buxoriy hadislari deya e’tirof etiladi.

Islomda axloqiy-huquqiy qonun-qoidalar majmui, shariat XI-XII asrlarda tugal shakllangan. Shariat qonun-qoidalari Qur‘on va sunnat asosida ishlab chiqilgan. Unda musulmonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, huquqiy va axloqiy hayotini tartibga soluvchi qonun-qoidalar belgilab berilgan. Bunday tartib-qoidalar “Hidoya” va boshqa kitoblarda jamlangan. “Aladab al-Mufrad” (Odob durdonalari) asarida tarbiyaga oid hadislarni keltiramiz, jumladan: “Yaxshilikka yaxshilik qilish haqida”- Jobir ibn Abdulloh (r.a.) aytdilar: “Rasululloh (s.a.v.): “Kim moddiy jihatdan birovga yaxshilik qilsa, unga ham yaxshilik qaytarilsin. Yaxshilik qilishga qurbi kelmasa, u kishini g‘oyibona maqtasin, chunki maqtash tashakkur o‘rnida o‘tadi. Ammo u kishining yaxshiligini yashirsa, undan tongan, yaxshilikni bilmagandek bo‘ladi. Kim o‘zida yo‘q narsani menda falon narsa bor deb maqtansa, ikki qavat kiyim bilan o‘ralgan hisoblanadi”, – dedilar”. Ya’ni u ikki barbar yolg‘ondir. Abu Zarr (r.a.)dan rivoyat qilindi: “Rasululloh (s.a.v.)dan: “Amallarning qaysi biri yaxshiroq” – deb so‘rabdi. Rasululloh (s.a.v.): “Alloh taologa ishonmoq va uning yo‘lida jihad qilmoq”, dedilar. Yana: “Qanday qulni ozod qilish yaxshi?” – deyildi.

Rasululloh (sa.v.): “Narxi qimmatroq va egasiga kerakliroq bo‘lganini”, dedilar.

So‘rovchi: “Agar shunga qodir bo‘lmasa-chi ?” – degan edi, Rasululloh (s.a.v.): “Unday bo‘lsa, kambag‘al va yetimlarga yordam berasan va ishini uddasidan chiqa olmaydigan hunarsiz

kishilarning ishini qilib berasan”, – dedilar. U: “Bunga kuchim yetmasa-chi?” – dedi. Rasululloh (s.a.v.): “U vaqtda odamlarga ozor berishdan o‘zingni saqlaysan, bu ham o‘z joning uchun qilgan bir sadaqang bo‘ladi”, – dedilar”. Dunyoda yaxshilik qilganlar oxiratda mukofotga ega bo‘ladilar.

Qo‘baysa ibn Burma Asadiy(r.a.s)aytdilar:

“Men Rasululloh (s.a.v) huzurlarida edim. Rasululloh (s.a.v): “Bu dunyoda yaxshilik qilgan kishilar oxiratda yaxshilikka erishadilar va shariatda yomonlik deb sanalgan ishlarni qiluvchilar oxiratda yomonlikka duchor bo‘ladilar”, – dedilar”.

Ushbu asar juda kam muhaddislar tomonidan sharhlangan bo‘lib, jumladan, Muhibbiddin Xatibning sharh bitgani haqida manbalarda ma‘lumotlar bor. Shuningdek, Sayyid Fazlulloh Jiyloniy rohmatullohi alayhi ham sharh qilgan bo‘lib, uning nomi “Fazlullohis Somad fiy tavziyhi “Al-Adabal-mufrad”dir. Ammo, u ham to‘laqonli sharh emas edi. Balki, shorih roviylarning tarjimayi holi, ba‘zi tushunarsiz hadislarining izohlarini keltirish bilan kifoyalangan.

Shuning uchun ushbu kitob ahli ilmlarga qo‘llanma sifatida foyda beradi. Ammo, avom xalq uchun mo‘ljallanmagan. Muallif sharh asnosida asarning asl nusxalarini topishda qiylanganini aytadi. Shuning uchun ham Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari “Odoblar xazinasi” nomli “Al-Adab al-mufrad”ning sharhi muqaddimasida: “Bizning sharhimiz keng musulmonlar ommasiga atalgan birinchi sharh, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz”, deydi. Kitob o‘qimaslik kishilarni ma‘naviy qashshoqlikka duchor qiladi. Ilmsiz odam esa kunduzi ham yo‘ldan adashadi. Shu tufayli jamiyatimizdagi ayrim rahbarlar, mahalla oqsoqollari poraxo‘rlik dardiga muhtalo bo‘lishdi. Tadbirkorlar savdo-sotiqdan katta foyda topish ilinjida bozorlarda narx-navoni sun‘iy oshirishni shunchaki tirikchilik zaruriyati deb baholashmoqda.

Aslida, bular naqadar katta gunoh ekanligi Imom Imom Buxoriy asarlarida bitilgan. mukammal Jamiyatimizdagi kambag‘allik qatlamini bartaraf etishda jonbozlik ko‘rsatishi lozim bo‘lgan (hozircha masjidlardagi quruq va‘z-nasihattan narxiga o‘tolmayotgan) din peshvolari – ulamolarimiz Imom Imom Buxoriy dahosi oldida bir umr qarzdordirlar. Chunki ular ma‘naviyat va abadiyat dunyosida u kishizabt etgan oltin zinaning birinchi pillapoyasiga ham yaqin bora olishmaydi. Sababi, Imom Imom Buxoriydagi qat‘iyat, jur‘at, samimiylik, fidoyilik xislatlari negadir ulamolarimizda ko‘rinmaydi. Zero, Imom Imom Buxoriy mazlumlarga, muhtojlarga, musofirlarga, qarzdorlarga doimo ko‘makchi, jamiyatning eng quyi qatlami bilan hukmdorlar o‘rtasidagi adolat posboni edilar. U kishi qarshisida manman degan olimlar tiz cho‘kib, hurmat ko‘rsatardi. Amir-u hukmdorlar u kishining duolari barakotidan umidvor bir holda saltanatiga tashrifini yillar davomida kutib yashardi. Imom Imom Buxoriy esa Saroy larga borishdan qochib, oddiy xalq orasida umr o‘tkazishni sevardi. U kishi Buxoro yaqinida bir rabot qurdirdi. Buni eshitgan xalq bu savobli ishda ko‘makchi bo‘lish uchun sel kabi yog‘ilib keldi. Muhaddislar peshvosi bunga kifoyalanmay, o‘zlari yeng shimarib ustalarga g‘isht tashib berib turdi. Imom Buxoriy ilmni, adolatni juda-juda sevar va qadrlardi. Bugungi avlodga bebaho boylik sifatida yozib qoldirgan asarlari “Jome‘us-sahih” kitobi ga bunday baho bergandilar: “Uni o‘zim bilan Alloh azza va jallaning orasida hujjat qildim”. Naqadar buyuk xizmat va oltin satrlar... Imom Imom Buxoriyning eng ulug‘ fazilatlaridan yana biri u taassub (mutaassiblik)ning har qanday ko‘rinishlaridan uzoq bo‘lgan alloma edi. Uning shoh asari “Sahih Imom Buxoriy” bilan chuqurroq tanishilsa, Imom Buxoriyning o‘z kitobidagi ma‘lumotlarga nihoyatda katta sinchkovlik va ehtiyotkorlik bilan yondashganini ko‘ramiz.

Qanchadan qancha mashaqqatlar bilan to‘plangan hadislarining sahihligiga to‘la ishonch hosil qilib, obdan tekshirgandan keyingina o‘z asariga kiritganligi ushbu fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi.

Imom Buxoriyning “Sahih” asari haqida gapirar ekanmiz, shuni ham qayd qilish kerakki, ushbu kitobning sahih isnodlarida ahli sunnaga mansub bo‘lmagan roviylar ham uchraydi. Imom Buxoriy muhaddislarda hadislariga bo‘lgan katta mehr va intilish hamda unga qat’iy amal qilish har qanday tahsinga sazovor, deb hisoblardi. Bu masala g‘oyatda muhim bo‘lib, bu xususda ba’zi muhaddislarning o‘zlari ham fikr-mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, imom Ahmad ibn Hanbal: “O‘zim amal qilmagan bitta ham hadisni kitobga olmaganman”, – deb ta’kidlagan bo‘lsa, o‘z davrining yirik muhaddislaridan biri sanalgan Vakiy ibn al-Jarroh: “Agar biror hadisni yodlashni istasang, eng avvalo, unga amal qil”, – degan

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, imom Buxoriyning “Al-Adab al-mufrad” asari musulmon kishi xulqlanishi kerak bo‘lgan barcha odob-axloqlar jamlanmasidan iborat kitobdir.

Shunday ekan, har bir mo‘min-musulmon kishi ushbu kitobni nafaqat mutolaa qilishi, balki, uni o‘zlashtirib, hayotiga tatbiq qilishi kerak bo‘ladi. Alloh taolo imom Buxoriy rohmatullohi alayhining islom olamiga qilgan xizmatlarini O‘z dargohida qabul qilsin. Bizlarga ham ularning yo‘lini tutishni nasib qilsin. Barchaga go‘zal xulq, odob-axloq bilan namuna bo‘lishga sazovor qilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imam Buxari. Al-adab al-mufrad. T.: Toshkent islom universiteti, 2008.
2. O. Yusupov va boshqalar. Imom Buxoriy ta’rifi. –T.: G‘ofur G‘ulom, 2019.
3. Shayx Muxammad Sodiq Muxammad Yusuf. Hadis va Hayot. 1-jild. T.: Sharq,2008-yil.
4. <http://zamtadqiqot.uz/index.php/ZTFITJ/index>
5. <https://www.mirarab.uz/ruknlar/1533>